

O‘QUVCHILARDA MULOQOT FUNKSIYALARIDAN KOMPLEKS FOYDALANISHGA ERISHISH USULLARI

Usmonova Moxizoda Avazjon qizi
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
1-kurs doktoranti (PhD)

Annotatsiya: Maqolada muloqot funksiyalarini bilish o‘qituvchilar uchun dars va undan tashqarida o‘quvchilar bilan bo‘ladigan muloqotlarni yaxlit jarayon sifatida tashkil etish, shuningdek ta’lim jarayonida tayyorgarligi muloqotning barcha funksiyalaridan kompleks foydalanishga erishish zarurligi bilan birgalikda darsni rejalashtirish, axborot berish, o‘quvchilarning o‘z shaxsini namoyon qilishlari va o‘z shaxsiy qobiliyatini ham ko‘rsata olishga sharoit yaratish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: muloqot, raqobat, g‘oyalar, individual, jamoa, qobiliyat, funksiyalar, axborotlashtirish, kommunikativ, liberal, avtoritar, demokratik, liberal.

Аннотация: В статье знание функций общения необходимо преподавателю для организации общения с учащимися на уроке и вне его как целостного процесса, а также для достижения комплексного использования всех функций общения в учебном процессе в совокупности. с необходимостью спланировать урок, предоставить информацию, о Речь идет о создании условий для проявления учащимися своей личности и проявления личных способностей.

Ключевые слова: коммуникация, конкуренция, идеи, личность, коллектив, способности, функции, информация, коммуникативный, либеральный, авторитарный, демократический, либеральный.

Abstract: In the article, knowledge of the functions of communication is necessary for the teacher to organize communication with students in and outside the lesson as an integral process, as well as to achieve the integrated use of all functions of communication in the educational process in the aggregate. with the need to plan a lesson, provide information, o It is about creating conditions for students to express their personality and demonstrate personal abilities.

Key words: communication, competition, ideas, personality, team, abilities, functions, information, communicative, liberal, authoritarian, democratic, liberal.

Zamonaviy jamiyat axborotlashtirish, kompyuterlashtirish, texnologiyalashtirishning yuqori darajasi, ta’limning jadal rivojlanishi, mehnat bozoridagi keskin raqobat, g‘oyalar va fikrlar plyuralizmi bilan ajralib turadi. Bunday sharoitda nafaqat kasbiy qobiliyatlarga ega, balki o‘z-o‘zini tarbiyalashga qodir, individual ta’lim trayektoriyasini shaxsiy va kasbiy rivojlanish strategiyasini qura oladigan mutaxassis eng ko‘p talab qilinadi.

Muloqotning eng muhim funksiyalaridan biri–hamdard bo‘lishdir. U boshqa kishi hissiyotlarini tushunish, boshqalar nuqtai nazarini ma’qullash qobiliyatini shakllantirish jarayonida amalga oshadi va jamoadagi munosabatlarni me’yorga keltiradi. Bunda o‘quvchini, uning istaqlarini tushunish va bo‘lar asosida o‘quvchiga ta’sir etish zarurligi anglash o‘qituvchi uchun juda muhimdir.

Muloqot funksiyalarini bilish o‘qituvchilar uchun dars va undan tashqarida o‘quvchilar bilan bo‘ladigan muloqotlarni yaxlit jarayon sifatida tashkil etishga yordam

beradi.

Darsga tayyorgarlik ko‘rayotganda muloqotning barcha funksiyalaridan kompleks foydalanishga erishish zarur. Darsni rejalashtirayotganda faqat axborot berish haqida emas, balki o‘quvchilarning o‘z shaxsini namoyon qilishlarini va o‘z shaxsiy qobiliyatini ham ko‘rsata olishga sharoit yaratishni ham rejalashtirishi zarur.

Bunda ayntqsa, o‘qituvchi yordamiga muhtoj bo‘lgan o‘quvchilarga alohida e‘tibor berish, har bir o‘quvchini qiziqtirish usullarini, hamkorlik va bilan bog‘lash va u faqat o‘qituvchi no‘qtai nazaridan emas, balki o‘quvchi shaxsi tomonidan ham o‘ylanib, turli variantlarda tayyorlanishi zarur. Bu haqda pedagogik texnologiyada batafsil ma‘lumot beriladi.

«Kommunikativ hujum» – o‘z-o‘zidan ma‘lum bunda o‘qituvchi o‘quvchilarni tezda jalb qilish texnikasini bilishi, dinamik ta’sir va o‘zini salobatli qilib ko‘rsatish usullarini egallashi zarur.

«Kommunikativ hujum» va «Miya hujumi»ning farqi nimada?

Muloqotni boshqarish bosqichida o‘quvchilar tashabbusini ma‘qullash, dialogik muloqot olib borish, haqiqiy sharoitga moslab o‘z fikrlariga to‘zatislar kiritish zarur. Va nihoyat, muloqotni tahlil qilish–uning maqsadi, mazmuni va natijasini taqqoslashdir. Ijodkorlikka asoslangan mehnatni tashkil etishni oldindan o‘ylab qo‘yish lozim. Muloqot bo‘yicha yirik mo‘taxassis olim KanKalik fikricha, professional pedagogik muloqot tarkibi quyidagilardan iborat:

➤ Sinf-guruh bilan bo‘ladigan muloqotni pedagog tomonidan modellashtirish (loyihalash);

➤ o‘zaro ta’sir ettirishning dastlabki onlarida bevosita faol muloqot olib borish (kommuniaktiv hujum);

➤ pedagogik jarayon davomida muloqotni boshqarish;

➤ amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish va uni kelgusi faoliyat uchun modellashtirish.

• Muloqotning har bir elementlarini muvaffaqiyatli bajarish uchun quyidagilarga e‘tibor berish zarur.

Modellashtirish bosqichi–sinf (guruh) o‘quvchilarning o‘ziga xos quyidagi xususiyatlarini, ularni bilish qobiliyatlari xarakteri, qiyinchiliklar ehtimolligi, ish sur‘atini bilishni talab etadi.

Darsga tayyorgarlik ko‘rishda uning mazmunini oldingi dars mazmuni

Tabiiyki, o‘qituvchi muloqotni, o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashabbuskori va etakchisi bo‘lishi zarur. Buning uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

➤ «Biz» sezgisini vujudga keltirish;

➤ o‘quvchilarga ta’sir etishda shaxs aspektlarini kiritish;

➤ o‘zini sinf (guruh) haqida ijobiy fikrga ega ekanligini his ettirish;

➤ faoliyatning aniq maqsadlarini ko‘rsatish;

➤ o‘quvchilarning ichki hissiyotlarini tushunish va ularga buni sezdirishi;

➤ ayrim o‘quvchilarga nisbatan shakllanib borayotgan seriotip fikrlarni o‘zgartirish.

➤ Bularning hammasi yosh o‘qituvchi faoliyatida samarali muloqot o‘rnatishda to‘siqlarga barham beradi.

O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot jarayonini boshqarish. Izlanishlarning ko‘rsatishicha pedagogning o‘quvchilarga nisbatan bo‘lgan ijobiy munosabati, ularga tiniq,

bosiq anda murojaat qilishi o‘quvchilarda erkinlikni his qilishda yordam beradi. o‘quvchilarga noto‘g‘ri munosabatda bo‘lish ularda ishonchsizlik kam gap bo‘lishga, o‘quvchilarni laganbardorlik kabi yomon fazilatlar shakllanishiga olib keladi. O‘quvchilar tomondan yaxshi ko‘ringan, hurmat qozongan o‘qituvchining gapi, begona, yomon ko‘ringan o‘qituvchining gap-so‘zlariga qaraganda, o‘quvchi tomondan umuman boshqacha qabul qilinadi.

O‘quvchilar orasida hurmat va ishonch qozongan o‘qituvchining so‘zlariga amal qilishga harakat qiladilar. O‘qituvchi o‘zaro ta’sirini turlicha amalga oshiruvchi rahbar hisoblanadi. Rahbarlik qilishning 3 xil uslubi mavjud:

- ***Avtoritar***
- ***Demokratik***
- ***Liberal uslublardir.***

1. Avtoretar uslubda o‘qituvchi guruppa faoliyatini muammolarni o‘zi hal qiladi: masalan, qaysi o‘quvchi kim bilan o‘tirishi. O‘qituvchining muomalasining asosiy formasi buyruq berish, majburlab ish buyurish, urishish yoki jazo berishdir. Bunday pedagogning rag‘batlantirishi ham xuddi kamanda bergandek bo‘ladi. O‘qituvchi o‘quvchiga bunday ta’sir ko‘rsatishni o‘quvchini haroratlaydi. «Sen yaxshi javob berding. Sendan buni kutmagan edim» yoki o‘quvchi qilgan xato ustidan kulib, qayerda xato qilganini aytmaydi.

2. Demokratik uslubda rahbar sinfnining fikriga suyangan holda ish olib boradi. Biror-bir narsani o‘quvchilar bilan birgalikda hal qilishga intiladi, ularning har birini fikri bilishga harakat qiladi, hammani faoliyatga aktiv yondashishga undaydi. Bunday ta’sir o‘qituvchining asosiy ta’sir etish formasi iltimos qilish, maslahat berish va axborot berishdan iboratdir.

3. Liberal uslubda o‘qituvchi kollektiv hayotiga aralashmaslikka harakat qiladi, o‘quvchilar savollariga qiziqishlariga yuzaki qaraydi. Munosabatning quyidagi uslublari ham mavjud:

- ***Do‘stlik asosida mavjud bo‘lgan munosabat***
- ***Masofani saqlovchi munosabat***
- ***Nafrat uyg‘otuvchi munosabat***
- ***Yuzaki bo‘lgan munosabat***

1. Do‘stlik asosida mavjud bo‘lgan munosabatda o‘qituvchi bolalarga va ishga nisbatan qat’iy ijobiy munosabatda bo‘lishi, tashkilot faoliyatiga tegishli bo‘lgan muammolarni birgalikda hal qilishga intiladi. Ish yaxshi yurishi uchun o‘quvchilar va o‘qituvchining tashvishi bir xil, maqsadlari ham bir xil yo‘nalishda bo‘lishi kerak.

2. Bunda o‘quvchi va o‘qituvchining munosabati chegaralangan bo‘ladi. Masalan: «Men bilgan narsani siz bilmaysiz», «Men gapimga kiringlar-men sizdan katta sizlardan ko‘proq tajribaga egaman».

Pedagogning bunday avtoritar uslubda ish olib borishi, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtoasida bo‘lgan munosabatning muvaffaqiyatsizligiga olib keladi.

3. Qo‘rqituv munosabatmasofa saqlovchi munosabatning haddan tashqari shakli hisoblanadi. Bu uslubda o‘quvchilarga nisbatan salbiy munosabat va faoliyat tashkil qilishda yuqoridan qarash mujassamlashadi.

Shu qo‘rqituv munosabati, «Yaxshilab eshitinglar yoki doskaga chiqarib 2 qo‘yib qo‘yaman», «Sizlaor hali mendan ko‘rasizlar»

4. Bu og‘zaki usulda pedagog bolalarni juda ham erkin qo‘yib yuboradi. Natijada bu usulda bolalar yolg‘on gapirib o‘zlariga hammani e’tiborini qaratmoqchi bo‘lishadi. Bu

usulning kelib chiqishi, bundan maqsad tezroq hamma bilan muloqotga kirish, hammaga yoqishdan iboratdir. Lekin boshqa tomondan qaraganda, kasbiy faoliyatning turlari yo‘q.

Munosabat uslubining 2 turi bor: monologik va dialogik

Dialogik munosabat tarbiyaning asosi hisoblanadi.

Monolik munosabat esa yoki o‘qituvchi va o‘quvchi tomonidan ijro etiladi. Pedagogning bolalarga bo‘lgan ijobiy munosabati va pedagog o‘rtasida hamkorlikdagi bo‘lgan ijodiy faoliyatini rivojlantiradi va ular o‘rtasidagi munosabat demokratik tusda bo‘lishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999. – B. 30.

2. Jumaniyozov R. Nutqiy mahorat (Notiq, nutq, mantiq) / – T., Adolat, 2005.

3. Jumanov I. Nutq san’ati / O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, T., 2007.

4. Karimova G, Xalilova N. ”Muloqot madaniyati moduli bo‘yicha” o‘quv uslubiy majmua. Toshkent, 2018. B. 17

5. Ziyomuxammedov B. Komillikka eltuvchi kitob. Turon-iqbol nashriyoti, Toshkent, 2006.